- O'quvchilik yoki talabalarik davrlardagi o'rgangan o'yin-mashqlar x[^]lr! allaqachonlar chiqib ketgan, qolaversa ularni bajarish uchun uy sharoiti imkoniyatlar (jihozlar, oila a'zolarining munosabati va h.k.) yo'q hisobi (60%);

-Ko'cha., hiyobon yoki maxsus o'yin maydonlariga chiqib mashq-o'yin bajarish mahallli millat ayollariga xos xususiyat emas (75%);

-mahalla (qishloq) sharoitida xotin-qizlar uchun sog'lomlashtirish markazlari (Ooylar) tashkil etilmagan, sharoitlarga qarab mashq-o'yinlarni tashkil qiluvchi; mutasaddi xodim va mutaxassislar yo'q (80%);

-uy yumushlari (ovqat tayyorlash, kir yuvish, bolalarga qarash va h.k.) do'kon-bozorlarga borib xarid qilish ham badantarbiyalan qolishmaydi (60%);

-milliy urf-odatlar ayoliarning hovli, ko'cha, hiyobon va o'yin maydonlarida erkin ravishda mashq-o'yin bilan shug'ullanishlarini ep ko'rmaydi (75%).

Bizning fikrimizcha bu sabablarda ba'zi ijobiy va ko'pgina salbiy tushunchalar mavjud. Ya'ni ko'pchilik ayollar odam tanasidagi harakatchanlikni ta'minlash, a'zolarining fiziologik va kimyoviy hamda biomexanik xususiyatlari, vazifalari haqida to'la tushunchalarga ega emas, deb xulosa qilish mumkin.

O'quvchi va talaba-qizlar:

-uy sharoitida ertalab gimnastika bilan shug'ullanishga uyaladi (ota-onalar, aka-opalar, bobo-buvilar) kulishadi (60%);

-maktab sharoitida sport bilan shug'ullanishga ota-onalar ruxsat berishmaydi (50%);

-o'quv va yashash muhitida sevimli sport turi (badiiy gimnastika, badminton, tennis, voleybol va h.k.) bo'yicha to'garaklar tashkil etilmagan, mashg'ulotlarni olib boruvchi xotin-qizlardan o'qituvchi-murabbiy yo'q (45%);

-yugurish, sakrash, basketbol, qo'l to'pi va boshqa turlar bo'yicha darslarda o'g'il bolalar masxara qilishadi (35%) yoki boshqacha nazar bilan qaraydi (30%), bu

holatlar qizlarning erkin va qiziqish bilan shug'ullanishlariga salbiy ta'sir etadi

(60%);

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mahalliy millat qizlarini sportga jalb etishda salbiy ta'sir etuvchi muammolar oz emas. Shu sababdan o'zbek qizlaridan olimpiya o'yinlari, gimnastika, yengil atletika, suvda suzish, sport o'yinlari turlari bo'yicha Osiyo o'yinlari, jahon birinchiliklarida ishtiroq etuvchilar yo'q ekanligi achchiq haqiqatdir.

O'zbek milliy kurashi, futbol, shahmat, sharqona yakka kurashlar bo'yicha mahalliy millat qizlaridan tarkib topgan jamoalarning (komanda) mavjudligi e'tiborga molikdir. Ularga berilayotgan e'tibor va imkoniyatlarni gimnastika, yengil atletika, suvda suzish kabi eng zarur sport turlariga ham qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

2.3. Talaba qizlarning jismoniy rivojlanishi ko`rsatkichlari va ularning taxlili.

Mamlakatimizda jismoniy madaniyatni umum xalq jismoniy madaniyatga aylanib borayotgan bir paytda jismoniy madaniyatni ayniqsa talaba qizlar jismoniy madaniyatini eskicha qarashlardan xalos etish, uni eng zamonaviy asoslarda yangicha mazmun va bilimlar bilan boitish mutaxasislar hamda yosh olimlar oldida turgan eng dolzarb muommolardan hisoblanadi.

Yangi ijtimoiy sharoitda respublikamizda xotin-qizlarning faolligi yanada ortib bormoqda. Ko`lami faolligini ortirishda talabalik davrida shakllangan bilim va malakalar muxim ahamiyat kasb etadi. Ular sog`lom turmush tarzini shakllantiradi va inson hayotida jismoniy madaniyatining o`rni va ahamiyati beqiyos ekanligi anglanadi.

2004 yilning 25 may kuni respublikamiz prezidenti I.A.Karimovning «O`zbekiston xotin-qizlar qo`mitasi faoliyatini qo`llab quvvatlash borasidagi qo`shimcha chora tadbirlar to`g`risida» gi farmoni chiqdi.

Farmonda respublikamizda xotin-qizlar faoliyatini oshirishdagi muommolar. va ularni hal qilish yo`llari, xotin-qizlarning jismoniy mdaniyat va sportga yanada kengroq jarlb etish masalalari belgilab berildi. O`zbekiston respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi ham 2004 yili «oliy ta`lim muassasalarida xotin qizlarni jismoniy tarbiya va sportgp kengroq jalb etish to`g`risida» gi buyrug`ini chiqardi. Buyruqda respublikamizdagi xotin-qizlarning sog`liqni saqlash, sog`lom oilani shakllantirish, ayollar va oila sportini rivojlantirsh, sog`lom turmush tarzini targ`ib qilishga davlat siyosati darajasida katta etibor ko`rsatganligi takidlangan. Shuningdek buyruqda oliy talim muassasalarida ta`lim olayotgan qizlarninng «Universiada» sport musabaqalarida ishtiroki yildan-yilga faollashib borayotganligi lekin ish bilan bir qatorda hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sport bilan mashg`ul bo`lgan talaba qizlar va o`qituvchi ayollarning solmog`i talab

darajasida emasligi joylarda ularga mos sport to`graklarini tashkil etishga yetarlicha e`tibor berilmayotganligi ko`rsatib o`tilgan.

Talaba qizlar jismoniy madaniyatini tashkil qilish ularni ilmiy uslubiy asoslarini ishlab chiqish bo`yicha ko`plab olimlar ilmiy-tadqiqod ishlarini olib borganlar. Ularga J.E.Eshnazarov, R.Abdumalikov, G.B.Bilyalova, K.Shokirjonova va boshqa ko`plab olimlarning ishlarini misol keltirish mumkin. Ular Respublikamiz mustaqilligi sharoitida xotin qizlar ayniqsa talaba qizlar jismoniy mdaniyatni milliy istiqlol g`oyalari milliy an`analarga mos ravishda takomillashtirishga qaratilgan ommaviy tavsiyalar bergan. Xozirda qanchalik ko`p ilmiy tadqiqod ishlari va amaliy tavsiyalar berilmasi ular amaliy ishga aylanmasa natijalar hamisha samarasiz bo`lib qolaveradi. Bu respublikamizda talaba qizlar jismoniy madaniyatida hal etilishi lozim bo`lgan muammolarning ko`pligidan dalolat beradi. Ular ichida talaba qizlar jismoniy faolligini oshiirish hozirda ham bosh muammo bo`lib qolmoqda. Haraktlanish darajasining pastligi natijasida talaba qizlarda vaznning ortishi va u orqali bug`inlar faoliyatining buzilishi oyoq vena qon tomirlarning kengayishi, nafas olishning kengayishi, Turli xil kasalliklarning paydo bo`lishi, yurak qon tomir yetishmavchiliklari, yuqumli kasalliklarga tez chalinishi, kasalliklardan kiyingi asoratlar qolishi, jigar faoliyatini buzilishi, farzand ko`rishdagi qiyinchiliklar modda almashinuvining buzilishi qon bosimini ortishi, qondagi diabet, buyrak xastaligi, o`t yo`lida tosh hosil bo`lishi va eng asosiysi uzoq umr ko`rmaslik kabi kasalliklar va boshqa salbiy oqibatlar yuzaga keladi.

Rivojlangant va aholi o`rtacha umr ko`rish darajasi yuqori Yaponiya, AQSH, Germaniya va boshqa davlatlarda talaba qizlar jismoniy madaniyat va sportni yaxshi yo`lga qo`yilgan ular ongli va faol ravishda bo`sh vaqtlarida jismoniy madaniyat mashg`ulotlari bilan muntazzam shug`ullanib borishadi. Ularning ish tajriba asosini o`rganish va talaba qizlarning kundalik faoliyatida foydalanish ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Quyidagi pedagogik shart-sharoitlardan foydalangan talaba qizlarning harakat faolligi ortadi. va uning natijasida talaba qizlar jismoniy madaniyati

zamonaviy talablar asosida shakllanishi mumkin. Talaba qizlarni jismoniy madaniyat mashg`ulotlar bilan mustaqil shug`ullanish malaka va ko`nikmalarini shakllantirish.

Talaba qizlarning bo`sh vaqtlarda shug`ullanishlari uchun uzlari qiziqqan sport turlari bo`yicha to`garaklar tashkil etish.

Talaba qizlar o`rtasida jismoniy madaniyat ta`limini keng targ`ibot qilish «Salomatlik va kasallik» tushunchalarini chuqur o`rgatish.

Jismoniy madaniyat mashg`ulotlarini qat'iy umumpedagogik tuzilish tamoillarga uslubiy talablar asosida o`tkazish va baholash.

Jismoniy madaniyat maslahat xonalar tashkil etish. Mutaxasislarning fikrlariga ko`ra zarur jismoniy tayyorgarlikni taminlash uchun eng qulay davr inson hayoti dastlabki ikki o`n yilligi davri hisoblanadi. 17-18 yosh yani talabalik davri jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikni muvofiqlashtiruvchi davr ekanligini ham tushunadigan payt keldi.



2.4. Mahalliy millat qizlarini sport maktablari va soxa bo'yicha mutaxassislikka jalb etishning samaralari.

Mamlakatda mahalliy mi Hat xotin-qizlarining barcha sohalardagi kabi jismoniy madaniyat va sportda ham o'z o'rni bor, mavzusi bor. Ayniqsa qizlarni sportga jalb etish, ularni tarbiyalab xalqaro musobaqalarda qatnashishlariga sharoitlar yaratish hozirgi davrning eng muhim muammolaridan biridir.

Tabiat va inson, aniqrog'i esa, inson va tabiat hayot manbai, uning tugamas g'oyat go'zal manbai hisoblanadi. Tabiatning fasllari, uning xilma-xil va rangorang manzaralari, ayniqsa hayvonot va insoniyat uchun yaratilgan noz-ne'matlar qanchalik ulug', muqaddas boisa, insoniyat olamida xotin-qizlar u bunyodkorlikdan ustun bo'lsa-ustun, iekin kam emas. Bu oddiy falsafik mulohaza yoki munosabatgina emas, balki ijtimoiy turmush madaniyatdagi beqiyos ko'p baxslarga manbadir deyilsa odob-axloq doirasidan chiqmagan bo'lamiz. Bu masalalarda mahalliy millat xotin-qizlari,

ayniqsa kasb-hunar kollejlari o'quvchi-qizlarning jismoniy madaniyat va sport bilan doimiy ravishda mashg'ul bo'lishi, barcha turdagi sport musobaqalarida faol qatnashishlariga bo'lgan munosabatlar, xayrihoxliklar, intilishlar yurtimizda turli shakl va mazmunlarda ifodalanmoqda.

Respublikamizdagi markaziy shaharlardagina emas, uzoq qishloqlarda tashkil etilgan kasb-hunar kollejlari ham o'quvchi-qizlar jismoniy madaniyat va ommaviy sport musobaqalarida qatnashishni maqul ko'rishmoqda. Nufiizli sport musobaqalarida (kurash, sport o'yinlari, futbol, sharqona yakka bellashuvlar va hokazo) qizlarning mahorat ko'rsatishlari keng tarqalmoqda. Ayniqsa xorijiy mamlakatlardagi o'rtoklik uchrashuvlar, xalqaro tumirlar va boshqa rasmiy musobaqalarda ishtiroq etib, bo'ynida marjondek tuzilgan medallarni ko'rgan kishilarning havasi keladi. Boshqa qizlar esa bunday muhim va kelajakka yetaklovchi tarbiyaviy tadbirlarga havas, ehtiros va ishonch bilan karashadi.

Bolalar sportini rivojlantirish to'g'risidagi Prezident Farmoni va Respublika Hukumatining qarori (2002 y. oktyabr) o'z kuchi va ta'sirini ijobiy ravishda chuqur singdirayotganligini tan olish lozim. Tuman, shaharlardagi sport maktablarida shug'ullanayotgan mahalliy millat qizlarining soni tobora oshib bormoqda. Sportga havasmand va iqtidori kuchli bo'lgan qizlarni tanlash, saralash va nazorat ostida tarbiyalab, ularning mahoratini oshirishga bo'lgan talab va ehtiyojlar ham ancha yaxshilanmoqda.

Ammo bunday ijtimoiy madaniyat va pedagogik jarayonlar hamma joyda qizg'in amalga oshirilayotir, deyish qiyin. Toshkent, Jizzax, Samarqand viloyatlardagi shahar va qishloq maktablarining o'quvchi qizlari bilan o'tkazilgan suhbatlar, pedagogik kuzatishlar va amaliy tajribalarimiz asosida quyidagi mulohaza va xulosalarni bayon qilish maqsadga muvofiqdir, ya'ni:

1.Sport to'garaklarining mashg'ulotlarida shug'ullanish va musobaqalarda qatnashishga ishtiyoqi kam (S0-S5 %), jismoniy tayyorgarligi yetarli emasligi (35-40 %) va boshqa bit qator sabablar qizlar orasida kamaygan emas.

2. Jismoniy madaniyat darslari o'quvchi qizlarning istak va xoxishlariga (milliy tushuncha va urf-odatlar) unchalik to'g'ri kelmaydi (30-45 %).

3.O'g'il bolalarning darslar, sport mashg'ulotlari va musobaqalardagi turli xil harakat va "gap otishlari" qizlarning uyatchanligini oshiradi. (50-60 %)

4. Sport kiyimida yurishda katta yoshdagi kishilarning qizlarga nisbatan fikrlari va qarashlari maqsadga muvofiq emas (60-70%). Shunga o'xshash mulohaza va qizlarning fikrlari ancha ko'p ekanligini e'tirof etish mumkin.

Shular asosida ba'zi bir takliflarni tavsiya etishiga to'g'ri keladi, ya'ni: -Bolalar sportni rivojlantirish haqidagi Prezident Farmoni va Respublika Hukumatining qarorlarini oila, maktab va mahalla sharoitlarida yana ishlab chiqish, ularga amal qilish;

-Umumta'lim maktablaridagi sport turlari bo'yicha seksiyalar, bolalar va o'smirlar sport maktablari faoliyatida qizlarga xos va mos bo'lgan mashg'ulotlarni ko'paytirish.

-"Umid nihollari", "Barchinoy" maxsus testlari va xalq miliy o'yinlari bo'yicha musobaqalarning nufuzini oshirish, faol ishtiroq etgan o'quvchi qizlarni rag'batlantirish, yaxshi natija va yutuqlarga erishganlarni na'muna sifatida keng targ'ibot qilish,

-Oila va mahalla sharoitlarida ertalab va bo'sh vaqtlarda qizlarning guruh bo'lib turli sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar (yugurish, to'p o'yinlari, sayr va hokazo) bilan doimiy ravishda shug'ullanishiga erishish;

-eng awalo qizlarga maqul bo'lgan va katta kichik erkaklarning o'y-hayollari, g'ayri fikrlarini uyg'otmaydigan sport kiyimlarini ishlab chiqish, ularni iste'molga aylantirish.

Xulosa qilib aytganda jismoniy madaniyat mashg'ulotlari, sport musobaqalari insonning jismoniy jihatdan uyg'un, barkamol bo'lishi, aqliy va jismoniy mehnat qobiliyatlarini oshirish, har sohada raqobatlashish imkoniyatlarini tarbiyalab yuzaga chiqaradi. Mahalliy millat qizlari o'rtasida deyarlik barcha sport turlari, hatto shtanga, boks, kurash kabi murakkab mashqlarini bajarishga layoqatlilar uchraydi. Ularni tanlash, sinovlardan o'tkazish va mahorat sirlarini davr talablari asosida o'rgatish lozim. Bunda mahalla faollari, sport muxlisi bo'lgan otalarning tajribalariga ko'proq tayanish lozim bo'ladi.

2.5. O`zbekistonda Xotin-qizlar Jismoniy Madaniyatini Rivojlantirish Yo'llari.

O`zbekistonda xotin kizlar salomatligini mustaxkamlash maksadidaolib boriladigan juda katta ishlar uz samarasini bermokda. Jamiyat tarakkiyotida xotin kizlarning yaratuvchanligi uziga xos betakror xususiyatlari va mustakil urni bor, buni xech kanday kuch inkor eta olmaydi.

Mamlakatimizda jismoniy madaniyat umumxalk jismoniy madaniyatga aylanib borayotgan bir paytda jismoniy madaniyatni ayniksa, talaba kizlar jismoniy madaniyatini eskicha karashlardan xalos etish, uni eng zamonaviy asoslarda yangicha mazmun va bilimlar bilan boyitish mutaxassislar hamda yosh olimlar oldida turgan eng dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Yangi ijtimoiy sharoitda Respublikamizda xotin - kizlarning faolligi yanada ortib bormokda. Kulamli faolligini orttirishda talabalik davrida shakllangan bilim va malakalar muxim ahamiyat kasb etadi. Ular soglom turmush tarzini shakllantiradi va inson xayotida jismoniy madaniyatning urni va ahamiyati bekiyos ekanligi anglatadi.

2004 yilning 25 may kuni Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning «O`zbekistan xotin - kizlar kumitasi faoliyatini kullab-kuvvatlash borasidagi kushimcha chora-tadbirlari to`g`risida» gi farmoni chikdi. Farmonda Respublikamizda xotin- kizlar faoliyatini oshirishdagi muammolar va ularni xal kilish yullari, xotin - kizlarni jismoniy madaniyat va sportga yanada kengrok jalb etish masalalari belgilab borildi. O`zbekiston Respublikasi Oliy va urta maxsus ta`lim vazirligi ham 2004 yili «Oliy ta`lim muassasalarida xotin - kizlarni jismoniy tarbiya va sportga kengrok jalb etish to`g`risidagi buyrukini chikardi. Buyrukda Respublikamizdagi xotin-kizlarning sogligini saklash, soglom oilani shakllantirish, ayollar va oila sportini rivojlantirish, SOGLOM turmush tarzini targib kilishga davlat siyosati darajasida katta e`tibor berilayotganligi ta`kidlangan. Shuningdek buyrukda oliy ta`lim muassasalarida ta`lim olayotgan

kizlarning «Universiada» sport musobokalarida ishtiroki yildan - yilga faollashib borayotganligi, lekin ish bilan bir katorda xozirgi kunda jismoniy tarbiya va sport bilan mashgul bulgan talaba kizlar va ukituvchi ayollarning salmogi talab darajasida emasligi, joylarda ularga mos sport tugaraklari tashkil etishga yetarlicha e`tibor berilmayotganligi kursatib utilgan.

Talaba kizlar jismoniy madaniyatni tashkil kilish ularni ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chikish buyicha kuplab profs. Ukituvchilar ilmiy tadkikot ishlarini olib borganlar. Bularga J.E.Eshnazarov, R.Abdimalikov, G.B.Bilyalova, K.Shokirjonova va boshka kuplab olimlarning ishlarini misol keltirish mumkin. Ular Respublikamiz mustakilligi sharoitida xotin-kizlar ayniksa, talaba kizlar jismoniy madaniyatni milliy - istiklol goyalari, milliy an`analarga mos ravishda takomillashtirishga karatilgan ommaviy tavsiyalar bergan.

Xozirda kanchalik kup ilmiy tadkikot ishlari va amaliy tavsiyalar berilmasin, ular amaliy ishga aylanmasa natijalar hamisha samarasiz bulib kolaveradi. Bu Respublikamizda talaba kizlar jismoniy madaniyatida xal etilishi lozim bulgan shu muammolarning kupligidan dalolat beradi. Ular ichida talaba kizlar jismoniy faolligini oshirish xozirda ham bosh muammo bulib kolmokda.

Harakatlanish darajasining pastligi natijasida talaba kizlarda vaznning ortishi va u orkali buginlar harakatchanligi buzilishi, oyok vena kon tomirlarining kengayishi, nafas olishning kiyinlashuvi, turli xil kasalliklarning paydo bulishi, yurak-kon tomir yetishmovchiliklari, yukumli kasalliklarga tez chalinishi, kasalliklardan keyingi asoratlarini kolishi, jigar faoliyatini buzulishi, farzand kurishdagi kiyinchiliklar, modda almashinuvining buzilishi kon sigimini ortishi, kondagi diabet, buyrak xastaligi, ut yulini kuchsizlanishi hosil bulishi va eng asosiysi, uzok umr kurmaslik kabi realliklar va boshka salbiy okibatlar yuzaga keladi.

Rivojlangan axoli urtacha umr kurish darajasi yukori Yaponiya, AKSH Germaniya va boshka davlatlarda talaba kizlar jismoniy madaniyat va sporti yaxshi yulga kuyilgan.

Ular ongli va faol ravishda bush vaktlarida jismoniy madaniyat mashgulotlari bilan muntazzam shugullanib borishadi. Ularning ish tajriba asosini urganish va talaba kizlarning kundalik faoliyatida foydalanish ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Kuyidagi pedagogik shart-sharoitlardan foydalangan talaba kizlarning harakat faolligi ortadi va uning natijasida talaba kizlar jismoniy madaniyati zamonaviy talablar asosida shakllanishi mumkin.

Talaba - kizlarni jismoniy madaniyat mashgulotlari bilan mustakil shugullanish malaka va kunikmalarini shakllantirish.

Talaba kizlarning bush vaktlarida shugullanishlari uchun uzlari kizikkan sport turlari buyicha tugaraklar tashkil etish.

Talaba kizlar urtasida jismoniy madaniyat ta`limini keng targibot kilish, «Salomatlik va kasalik» tushunchalarini chukur urgatish.

Jismoniy madaniyat mashgulotlarini kat`iy umum pedagogik tuzilish tamoyillarga uslubiy talablar asosida utkazish va baxolash.

Jismoniy madaniyat maslaxat xonalari tashkil etish.

Mutaxassislarning fikrlariga kura zarur jismoniy tayyorgarlikni ta`minlash uchun eng kulay davr inson xayotining dastlabki ikki un yilligi davri hisoblanadi. 17-18 yosh, ya`ni talabalik davri jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikni muvofiklashtiruvchi davr ekanligini ham tushunadigan payt keldi.

2.6. O'ZBEKISTONDA XOTIN QIZLARNI JISMONIY TARBIYASI

Jahon xalqlari orasida onalarga e'tibor, mehr-muhabbat eng yuqori o'rinda turadi. O'zbek xalqi onalar, xotin-qizlarini e'zozlash, ularga, xizmat qilishda o'ziga xos alohida xususiyatlarga egadir.

Oilada barcha kishilar, ayniqsa, farzandlar onaning hur-matini hamma narsadan ustun qo'yadi. Xotin-qizlarga mehr-oqibat g'oyat kuchlidir. Ayniqsa, qizlarning turmushga chiqishi, oila qurishi va doimo sog'lom oqibatli, oila a'zolariga sadoqatli bo'lishga o'rgatiladi. Aksariyat xotin-qizlar bunday e'tibor va hurmatga yaxshi munosabatda bo'ladi, asosiy ishonchlarni sabr-qanoat bilan oqlashadi.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni qayta tiklash, aholining ma'naviy va nia'rifiy jihatdan boyitish yo'lida juda katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Faqat katta yoshdagilargina emas, balki kichik yoshdagi qizlar va o'quvchi qizlar orasida milliy iftixor va g'ururni egallashda siljishlar bo'lmoqda. Islom dini olamidagi eng ibratli va foydali jihatlar xotin-qizlar orasida singib bormoqda. Bularning negizida sogiom oila yaratish, farzandlarni jismonan va ma'naviy jihatdan barkamol qilib o'stirish tadbirlari tobora kengaymoqda.

Mustaqillikning sharofati tufayli sportchi xotin-qizlarimiz chet ellarga tez-tez borib kelmoqda. Bunday jarayonlar milliy madaniyatimizni boyitishga xizmat qilmoqda. I.To'laganova (tennis), S.Burxonxo'jayeva (tennis), Yu.Hamroqulova (shaxmat) jahon sporti yulduzlariga aylanmoqda.

Respublika Prezidentining farmonlari (1993, 1996, 1999, 2002) hamda O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahka-masining ko'pgina qarorlari asosida ayollarning salomatligini, ijtimoiy-moddiy jihatdan ta'minlanishi va ularga doimiy ravishda tibbiy xizmatlarni yaxshi yo'lga qo'yish kabi masalalarga olib borilayotgan turli-tuman tadbirlar katta ahamiyatga egadir.

E'tirof etish kerakki, jismonan zaif yoki kasalmand xotin-qizlarga tibbiy yordamlar doimiy ravishda berib borilmoqda.

Jismonan ojiz va kasalmandlikning sabablari tug'ma yoki oziq-ovqatlarni yetarli darajada iste'mol qilmaslik bilan ko'proq bog'liqdir. Shuningdek, og'ir

vaznli (ortiqcha semiz) xotin-qizlar ham oz emas. Bu ikki holatda barcha dori-darmonlarga nisbatan jismoniy mashqlar, turli o'yin (raqs) bilan shug'ullanish natijasida sog'lom bo'lish holatlari ilmiy-amaliy jihatdan tajribada isbotlangan. Shu sababdan, markaziy shaharlarda turli kasalliklarni davolash yo'lida jismoniy mashqlar vositasidan foydalanish usullari, sog'lomlashtirish maskanlari kun sayin ko'paymoqda.

Yaqin o'tmishimizda sport kiyimlari bilan shug'ullanuvchi xotin-qizlar ancha ko'paygan edi. Bu jihatlar jismoniy tarbiya dasrlarining majburiyligi va sport musobaqalarining qoidalarida qat'iy chegaralangan edi, lekin keyingi yillarda milliy xususiyatlar, urf-odatlar natijasida odmiroq (mos) kiyimlardan foydalanish amalda

qo'llanilmoqda. Bu jihatlar milliy xususiyatlarni rad etmagan holda yanada takomillashmoqda.

Ta'kidlash lozimki, teleko'rsatuvlar, matbuot xabarlari, ayniqsa, chet ellarga sayohat qilish, tijorat va boshqa zaruriyatlar bilan borib-kelish, tajriba almashish natijalari kiyinish, bezaklar berish, muomila sohalarida yoshlar o'rtasida yangi yo'nalishlar ta'siriga tushib qolish kuchaymoqda. Bunday jihatlar sportda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lmoqda. Sport maktablari va turli jamoalarda (komanda) mahalliy millat qizlarining qiziqib va faollik bilan shug'ullanishlari kengaymoqda. Kurash, sharqona yakka kurashlar, kikkboksing, futbol, hatto og'ir atletika bilan kuchini sinash kabi erkaklar sporti bilan shug'ullanish rivojlanmoqda. Bunday jihatlar oila, qolaversa, Vatan shon-shuhratini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu boisdan ham ota-onalar qizlarining gimnastika, suzish, yengil atletika, voleybol, qo'l to'pi, tennis kabi sport turlari bilan shug'ullanishlariga monelik qilmayotir.

Jismoniy mashqlar, ayniqsa, sport turlari xotin-qizlarning jismonan barkamol bo'lishi, sog'lom, tetik bo'lib, sog'lom farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazishlarida eng muhim omillardan biridir. Bu jihatlar barcha oilalarga, ayniqsa, yosh oilalarga tobora tez singib bormoqda.

Bunga qaramasdan ko'pchilik kekxa avlodlar, shuningdek, zamonaviy yosh oilalarda ham xotin-qizlarning jismoniy tarbiyasiga e'tiborsizlik hamon kuchliroq.

Buning eng asosiy sabablari shundaki, urf-odatlarni ro'kach qilib (bahona) xotin-qizlarga ertalab yoki bo'sh vaqtlarda gimnastika, o'yinlar bilan shug'ullanishni erkaklar ep ko'rmayotir. Qolaversa, erkaklar va ayollarning ko'pchiligi jismoniy mashqlarni ishlatish yo'llari, ularning salomatlikni yaxshilashdagi tarbiyaviy jihatlarini yaxshi bilmaydi.

Shu sababdan ham, eng awalo, oila, mahallalarda xotin-qizlarning jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishiga tegishli shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda xotin-qizlar uchun maxsus mashqlar majmuasi, osonlashtirilgan texnik qoidalar bo'yicha sport turlarini ishlab chiqib, amalda joriy etish lozim. Bu yo'lda teleradio va ommaviy axborot vositalari orqali mutaxassis olimlar, shifokorlar, ayniqsa, xotin-qizlarning ma'ruzalar bilan chiqishini tashkil etish lozim. Shuningdek, xotin-qizlar qo'mitalari sport tashkilotlari bilan hamkorlikda xotin-qizlar jismoniy tarbiyasi va sportini rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishlari lozim. Umuman aytganda, xotin-qizlar orasidan gimnastika va harakatli o'yinlar bo'yicha o'rta maxsus ma'lumotli xodimlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish davr talabidir.

Pirovardida ta'kidlash lozimki, xotin-qizlar o'rtasida jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish, ayniqsa, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda mahalliy millat xotin-qizlaridan R.A.Qoziyeva (jismoniy tarbiya tarixi), O.Sobirova (suvda suzish, marhum), K.T.Rahimjonova (Shokirjonova — yengil atletika), G.B.Abdurasulova (qilichbozlik, O'zDJTI), R.A.Qosimova (qo'l to'pi, Samarqand DU) kabi olimlarning hissasi kattadir. Bu kabi iste'dodli olimlarni ko'paytirish kelajakda juda ham zarurdir. Shu o'rinda xotin-qizlarning kundalik turmush sharoitida shug'ullanishga doir amaliy taklif sifatida «To'maris o'yinlari» Respublika festivallari (1999-yil - Jizzax, 2001-yil - Shahrisabz, 2003-yil - Namangan) dasturidagi ba'zi turlarning qisqacha mazmunini havola etish joizdir.

1. «Tortishmachoq»: Uzun arqon maydonda chizilgan joyga qo'yiladi. Arqonning o'rtasiga rangli (oq yoki qizil) latta bog'lanadi. Bu chegaralarda o'tganligini bildiradi. Ikki tomonda 5—10 kishi arqonni ko'tarib «ruxsat» berilgach, o'z tomonlariga tortishadi. Belgilangan chiziqdan arqon belgisi o'tib

ketsa o'yin to'xtatiladi.

2. «Qo'l kuchini sinash: bu tur jahon sport turlari qatoriga kirgan va «armrestling» deb ataladi. O'yinchilar yuzma-yuz stolga tirsaklarni qo'yib, kaftlarni qisib stolda o'tirishadi. «Ruxsat» berilgach, har bir kishi raqibining bilagini qayirishga harakat qiladi. Kimning kuchi ko'p bo'lsa, raqibining bilagini qayirib, stolga tekkazadi.

3. «Arg'imchoq»: «Arg'imchoq» (skakalka—sakragich) o'yinning turlari juda ko'p. Ya'ni: yakka holda turli xil sakrashlar, juft bo'lib sakrashlar. Eng qizig'i shundaki, uzunroq arqonning. ikki uchidan ushlab aylantirilgan holda kim ko'p sakrashi (xato qilmasdan) musobaqa tarzida o'tkaziladi. Sakrashda ikki va uch kishi bo'lib birdaniga sakrash mumkin. Arqonni esa 4—6 kishi bo'lib aylantirish zarur boiadi.

4. «Otib qochar*»: to'pni otish chizig'ida «Uy» belgilandi. 30m. qarama-qarshi tomonda chegara chizig'i boiadi. O'yinchilar yuza chizig'ida turishadi. «Uy»dan uzoqqa to'p otiladi va urgan kishi qarshi chiziqqa yetib olishi kerak. Agar to'pni tutib olib, uni ursa o'yinchilardan boshqasi yana bosh-laydi. Xullas, tez yugurish, epchillik bilan yana o'z joyiga qaytib kelish o'yinchidan talab etiladi. Bu o'yinni qizlar va yosh juvonlar ko'proq o'ynashlari lozim boiadi.

5. «Qirq tosh»: start chizig'idan boshlab, uzunasiga har bir o'yinchini hisobga olib 5m.dan parallel ravish'da chiziq tortiladi va uning har 5m.dan so'ng doiraga belgilanadi. Ruxsat berilgach, o'yinchilar to'pni doirachalarga qo'yib qaytadi. Bunda eng oldindagisi so'nggi doiraga (uzoqdagi) qo'yib keladi. Qolganlari ham shu tarzda o'z doiralariga to'pni qo'yib, orqaga yugurishadi. Bu o'yin vaqtga qrrab g'olibni belgilaydi.

6. «Otishma»: o'yinchilar (6—8 kishi) ikki jamoa boiinib, keng doira chiziladi. Qur'a tashlashdan keyin boshlovchilar aniqlanadi. Boshlovchilar doira tashqarisida va raqiblar doira ichida boiishadi. Doira ichidagilarni to'p bilan urib, o'yindan chiqarish kerak. 5—6 daqiqa ichida qaysi jamoa ko'proq yutuqqa erishsa, o'sha g'olib, deb topiladi.

7. «Barchinoy» test-sinovlari: qatnashchilar yoshiga qarab yugurishlar

(60m., 100m.), 50m.ga suzish, miltiqdan o'q otish, uzunlikka sakrash, tennis koptogini uloqtirish (12— 15 yosh), 16 yoshdan yuqori boiganlarga 100m., 1000m. yugurish, 50m.ga suzish, miltiqdan o'q otish, uzunlikka sakrash, granata uloqtirish turlari qo'llaniladi.

Yuqorida keltirilgan o'yinlarni qizlar va ayollar yaxshi bilishlari, imkoniyat doirasida ular bilan doimiy ravishda shug'ullanishlari zarur boiadi. Yoshlar jismoniy barkamollikka yetishish va o'z jamoalari, tuman-shahar, viloyat va respublika musobaqalarida faol ishtifok etishni maqsad qilib qo'yishlari, «Barchinoy» maxsus test-sinovlarini bajarishga tayyor boiishlari lozimdir.

Katta yoshdagi ayollar turli xil mashqlar, o'yinlar orqali o'z salomatligini yaxshilash va oilada kichik bolalarni o'yinlar bilan shug'ullanishga o'rgatishlari hayotiy zaruriyatdir.

Farmon va ijro

Bugungi kunda "Sog'lom ona - sog'lom bola" harakati tobora kengayib bormoqda. Bundan asosiy maqsad sog'lom turmush tarzi va sog'lom oilani shakllantirish, shu asosda har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Yurtboshimizning 2004 yil 25 mayda qabul qilingan "O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ushbu ishlar ko'lamini kengaytirishda muhim dasturilamal bo'lmoqda.

Viloyatimizda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar xususida viloyat xotin-qizlar qo'mitasi raisi, viloyat hokimining o'rinbosari Inobat KARIMOVA quyidagilarni gapirib berdi:

- Davlatimiz rahbari shu yil 16 yanvar kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi homiylik kengashining navbatdagi yig'ilishida kelajak avlodning sog'lom bo'lishi avvalo ayolga bog'liq ekanini ta'kidladi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi mavqeini oshirish, ularga bilim olish va kasb egallash, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etish uchun barcha sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero faqat

bilimli, o'z sog'ligi va oilasi haqida g'amxo'rlik qiladigan, kelajakka intilgan ayol xalqimiz orzu-umidlarini oqlaydigan farzandlarni tarbiyalashi mumkin.

Xotin-qizlar qo'mitasi sog'lom onalik va bolalikni targ'ib qilish bo'yicha izchil ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu borada qator loyihalar hayotga tatbiq etilayotir. Xavfsiz onalikni ta'minlashga ko'maklashish, xotin-qizlarda kasalliklarning oldini olish, yosh onalarda chaqaloqni parvarishlash ko'nikmalarini hosil qilish, aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish shular jumlasidandir. Xotin-qizlar va bolalarni jismoniy tarbiya hamda sportga jalb etishga oid ommaviy tadbirlar ham o'tkazilmoqda. Ayniqsa, Olimpiya zahiralari sport kollejida o'smir qizlar o'rtasida sportning yengil atletika turi bo'yicha "Bahor malikalari" musobaqasi o'tkazildi. Unda Surxondaryo, Navoiy, Buxoro, Samarqand va viloyatimiz qizlari turli masofaga yugurish, sakrash hamda koptok uloqtirish turlari bo'yicha ishtirok etdilar. Barcha mahalla fuqarolar yig'ini hamkorligida "Otam, onam va men - sportchilar oilasi" spartakiadasi, "Oila salomatligi" marafonlari o'tkazildi. So'nggi yillarda xotin-qizlar qo'mitasi viloyat madaniyat va sport ishlari boshqarmasi va "Bolalar sportini rivojlantirish" jamg'armasi viloyat bo'limi bilan hamkorlikda xotin-qizlarni sportga yanada kengroq jalb qilish maqsadida turli tashkilotlardagi xizmatchi xotin-qizlar o'rtasida "Sport - salomatlik garovi", oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida "Sport - sog'lom turmush tarzi" musobaqalari hamda "Sog'lom qiz - sog'lom ona" sport marafonini o'tkazdi.

Yoshlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, reproduktiv salomatlikni saqlash, turmush qurishdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tishning ahamiyati, jinsiy yo'l orqali yuqadigan kasalliklar, OIV/OITS va giyohvandlik kabi illatlarning oldini olishga doir bilimlarini oshirish ham muhim vazifalardandir. Shu maqsadda xotin-qizlar qo'mitasi viloyat adliya boshqarmasi, respublika salomatlik va tibbiy statistika institutining viloyat filiali, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan hamkorlikda barcha kollej va litseylarda savol-javob kechalari, uchrashuv va suhbatlar tashkil etdi. Skrining markazi xodimlari bilan hamkorlikda

mahallalar hamda o`quv yurtlarida nogiron bolalar tug`ilishining oldini olish har bir oila hamda jamiyatimiz uchun nechog`li ahamiyatli ekanini, bunday bolalarning tug`ilishiga ko`proq qarindoshlarning turmush qurishi sabab bo`layotganini tushuntirish ishlari yo`lga qo`yildi.

O`tgan yil davomida viloyatimizdagi barcha fuqarolar yig`inlarining diniy ma`rifat va ma`naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo`yicha maslahatchilar guruhlariga bo`linib, Qarshi Davlat universitetida oilaviy ta`lim dasturi doirasida murg`ak yoshdagi bolalarni parvarishlash, gigiyena madaniyatini oshirish, reproduktiv salomatlikni saqlash, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilish bo`yicha o`qitildi. Endi ular o`z sog`ligini qanday asrash va yaqinlarining sog`ligini mustahkamlash haqida yetarli ma`lumotga ega bo`libgina qolmay, egallagan bilimni mahallalar, mehnat jamoalarida targ`ib qilmoqdalar.

"Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturini ta`minlash maqsadida 2009 yil uchun tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Joylarda birinchi navbatda, qishloqlarda qizlarni sport bilan shug`ullanishga jalb qilish, qishloqlarda badiiy va sport gimnastikasi kabi zamonaviy sport turlarini yanada rivojlantirish zarur. Bunda kam ta`minlangan oilalar qizlarini sport bilan shug`ullanishlari uchun kerakli sport kiyimi va jihozlar bilan ta`minlashga alohida e`tibor qaratdik. Shu maqsadda sport kiyimlari yarmarkasi tashkil qilish rejalashtirildi. Bunda asosan viloyatimizning barcha tumanlaridagi tadbirkor xotin-qizlarimiz o`z mahsulotlari bilan ishtirok etadilar. Ayollarni ish bilan ta`minlash dasturimizning asosiy bandlaridan hisoblanadi. Tumanlarda mehnat yarmarkalari tashkil etib, unda barcha yirik korxonalarni jalb qilgan holda ayollarimiz uyda ishlashlari uchun yanada ko`proq imkoniyatlar yaratayapmiz.

Bularning barchasi davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimiz aholisi, birinchi navbatda, xotin-qizlar va bolalar salomatligini yaxshilash borasida ko`rsatilayotgan doimiy g`amxo`rlikning samarasidir. Zero Vatanimiz kelajagi ana shunday sog`lom onalar va bolalarga bog`liq.

Muxokama

1.O'zbekiston mustaqilligi davrida axolini sog'ligini yaxshilash ayniqsa "sog'lom ona – sog'lom bola" shioriga amal qilish yo'lida xotin – qizlar bo'lajak onalarimiz sog'ligini mustahkamlash yo'lida beqiyos ko'p va ulkan tadbirlar olib borilayotganligini etiborga olib, bu yo'lda respublikamiz Pirizdenti I.A. Karimovning chuqur ma'noli va keng qamrovli mulohazalari eng yuksak darajadagi omildir, xotin – qizlar sportini yanada rivojlantirish unga keng ommani jalp qilish maqsadida bir qator ijobiy ishlar qilinmoqda.

Sog'lom farzandni dunyoga keltirish va uni tarbiyalash jaroyonida qizlarni yoshligidanoq tayyorlab borish lozim. Yana bu borada ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Sog'lom turmish tarzini shakillantirishda aloxida etibor qaratishlari muxum. Barkomol avlodni dunyoga keltirish va ulg'aytirishda muxum bo'lgan bu kabi omillarni axoli ongiga o'tkazish, ota – onalar, tibbiy madaniyatni oshirish maqsadida o'quv yurtlari, muassasalar va tashkilotlar, maxallalarda turli tadbirlar o'tkazilib kelmoqda. Respublikamiz maxalla fuqorolar yig'inlarda haftaning payshanba kuni "Sog'lomlashtirish kuni" shanba kuni ommaviy sport kuni deb e'lon qilingan.

Mutaxassislar va maxalla ayollari davra suxbatlari o'ykazilishga muxum etibor qaratilmoqda.

Prizidentimizning 2009-yildagi "Ona va bola" salomatligini muxofaza qilish, sog'lom ovlodni shakillantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi hamda 2009-yil 1-iyuldagi "2009-2013-yillarda axolini rproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ulishi jismoniy va manaviy avlodni voyaga yetgazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora tadbir to'g'risida"gi qarori ijrosini taminlash maqsadida fertil yoshdagi ayollar tibbiy kurikdan utkazilmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov rahnamoligida navqiron avlodni ma"naviy va jismonan sog'lom, barkamol inson etib tarbiyalashda eng muhim vositalardan biri sportni rivojlantirishga doimiy e'tibor qaratilmoqda.

Badiiyb gimnastika bugun mamlakatimizga jadal rivojlanayotgan sport turlaridan.

Poytaxtimizda utgan musobaqalarni bevosita kuzatgan mutaxassislar iashtirokchilarning saoni va mahorati yildan-yilga oshib borganini alohida takidladilar.Bugaungi kunda badiiy gimnastika buyicha yurtboshimizning turli hududlarda faoliyat kursatayotgani 632 ta sport zalida 10 ming nafarga yaqin qiz malakali murabbiylar rahbarligida shug'ullanmoqdalar.

1.Mamlakatimizda sport sohasida qaratilayotgan e'tibor dunyoning hech bir davlatida uchramaydi.Ayniqsa sportning bosqichma – bosqich tarzida amalga oshirilishi kelajak yoshlarimizning orasidan iqtidorli sportchilar yetishib chiqishiga zamin yaratayotir.Chunki buning uchun yurtimizda barch shart – sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

Ya'ni mamlakatimizning barcha hududlarida qurilayotgan hamda foydalanishga topshirilayotgan stadion bugungi kunda yoshlarimiz bilan gavjum.

Fikrimizga asos sifatida o'g'il – qizlarimizning ta'lim muassasalarida turli sport tugaraklari, seksiyalari, klublarida muntazam ravishda faoliyat yuritayotgani yoki Prezidentimiz tomonidan asos solingan 3 bosqichli sport o'yinlari umumta'lim maktablari urtasidagi "umid nihillari" kasb hunar kollejlari va akademik litseylar o'quvchilari "Barkamol avlod"hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasidagi "Universiada sport musobaqalari mamlakatimizda kelajagimiz egalari bulmish yoshlarimizning uzluksiz jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun katta imkoniyatlar yaratib bermoqda.

XULOSA

Mustaqillikka qadar O'zbekiston xalqaro sport jamoatchiligi uchun qariyb yopiq edi. Futbol va tennis bo'yicha o'smirlar o'rtasida sobiq socialistik davlatlar sportchilari ishtirokida utkazilgan turnirlarni hisobga olmaganda, mamlakatimizda boshqa xalqaro musobaqalar deyarli o'gkazilmadi.

Mustabid siyosat jismoniy sport sohasida ham o'z asoratlarini qoldirib, bular ayniqsa qo'yidagilarda namoyon bo'ldi.

Prezidentimiz farmoni asosida viloyatda tuzilgan doimiy ishlovchi komissiya tomonidan xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, manfaatlarini himoya qilish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xotin-qizlar bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotir. 2009 yilda viloyat bo'yicha 35500 dan ziyod xotin-qiz ishga joylashtirildi. Tijorat banklari tomonidan 2800 nafar ayolga turli miqdorda kredit ajratildi. Joriy yilning dastlabki choragida xotin-qizlar uchun 11 mingdan ziyod ish o'rni yaratildi. Banklar tomonidan ajratilgan besh milliard so'mlik kredit hisobidan besh yuz nafarga yaqin ayol o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlash imkoniga ega bo'ldi.

1 O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport ishlari markaziy respublikalarga nibatan past darajada yo'lga qo'yildi, sport harakatiga yerli aholi ommaviy ravishda jalb qilinmadi, ular orasidan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash borasida esa, aniq va maqsadli ishlar olib borilmadi, oqibatda aksariyat yoshlarning jismonan sog'lomligi talab darajasida bo'lmay, ular orasidan katta sportga sanoqli sportchilar chiqa oldilar;

2.Sport tarmoqlarini rivojlantirish, sport inshootlarini qurish, umuman sportning moddiy-tehnikaaviy bazasini kenaytirish va moliyalashtirish ishlari faqat markaz roziligi bilan, cheklangan tarzda amalga oshirildi;

3.Soha uchun oliy va o'rta ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lsada, musobaqalarda milliy sportchi kadrlar turli suniy to'siq va saralashdardan

o'tishga majbur edi. Milliy kadrlarni tayyorlash va mahalliy sportchilar iqtidorini ro'yobga chiqarishdagi bunday noxolis siyosat asorati mustaqillikning birinchi yillarida ko'pchilik sportchi va murabbiylarning boshqa joylarga ketib qolishida o'z aksini topdi;

4.O'zbekiston sportiga adolatiz munosabat tufayli juda ko'p sportchilarimiz Yevropa, Jahon va Olimpiya musobaqalarida ishtirok etish imkoniyatidan mahrum yetildi;

5.O'zbekiston sportchilarini jahon miqyosiga mustaqil chiqa olmaganligi mazkur sohaning zamon talablariga mos ravishda rivojlanib borishiga ham katta to'sqinlik qildi.

O'zbekistonda mavjud muammolarni bartaraf qilish maqsadida mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mamlakat rahbarining tashabbusi bilan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qonunlar, prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bosqichma-bosqich qabul qilinib, ular joriy etildi.

Qisqa muddatda:

- jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning tashkiliy asoslari takomillashtirildi;

- O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federasiyalar tashkil qilindi;

- jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, ommaviy sport ishlari va sportning milliy turlari rivojlantirildi; jismoniy tarbiya va sport sohasini mablag' bilan taminlash tizimi takomillashtirildi, nodavlat sektor rivojlantirildi;

Jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi; milliy ta'lim dasturiga binoan jismoniy tarbiya va sport sohasiga kadrlarni tayyorlash va qayta o'qitish ishlari amalga opshrilmogda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li». T.: O'zbekiston, 1992. 1-tom 36-b.
2. Karimov I.A. «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati» T.: Sharq, 1993. 2-tom 92-b.
3. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin». - T.: O'zbekiston, 1994. 2-tom. 300 b.
4. Karimov. I.A. «Istiqlol va manaviyat». - T.: O'zbekiston, 1994.165-b.
5. Karimov I.A. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat yesin». T.: O'zbekiston ,1998. 7-tom. 84-b.
6. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q». T.: O'zbekiston.1998.132-b. 7-tom.
7. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». T., 1999. 7-tom. 370-b.
8. Karimov I. A. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasi materiallarning ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga kiritish to'g'risida». T., 1999. 7-tom 396-bet.
9. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning «Sog'lom avlod uchun ordenini topshirish marosimida so'zlagan nutqi». T.: O'zbekiston 1994.2-tom.207-b.
- 10.Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. (Respublika prezidenti Islom Karimovning «Universiada-2000» sport anjumani qatnashchilariga tabrigi) Toshkent-2000 y.
- 11.Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. (Respublika prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqi Toshkent, 1979 y.
- 12.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha bolalar muassasalari tarmog'ini tashkil etish va rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarori. 1999, 30 iyun.

- 13.O'zbekiston Respublikasi «Talim to'g'risida»gi qonuni.
- 14.O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonuni.
- 15.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni. 2000.
- 16.«Manaviyat va marifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida O'zbekiston
- 17.O'zbekiston Prezidentining «O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi Farmoni 24 sentyabr 2002 yil.
- 18.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28 may 1999 yil qarori «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 271- qarori.
- 19.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 31 oktyabr 2002 y. «O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 374- sonli qarori.
- 20.«O'quvchi va talaba yoshlarni sportta jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida»gi 244 sonli qarori.
- 21.Abdumalikov R.A., Alibekov Sh., Norkulov Sh. «Halq milliy uyinlari mazmunida ma'naviyat masalalari». Toshkent, 1995. B.9.
- 22.O'zbekiston Respublikasining “Barkamol avlod Davlat dasturi” 2010 y.
- 23.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy sport targ'ibotini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori 4 noyabr 2003 yil.
- 24.I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch”. T., “O'zbekiston” 2008 yil
- 25.Abdullayev A, Xonkeldiyev Sh.H. jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, darslik. Farg'ona-2005 y 270 b.
- 26.Abdullayev A. Jismoniy tarbiya vositalari. O'quv qo'llanma. Farg'ona-1998

y 80 b.

27. Akramov A.K. "O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi" o'quv qo'llanma. T. O'zDJTI 1997 yil 168 b.
28. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish, monografiya. T., O'zDJTI, 2005, 279 b.
29. Xoldarov T.X, Abdumalikov R, Qurbonov S. «Barkamol avlod» sport klubi, o'quv-uslubiy qo'llanma, T-2004 y 47 b.